

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

P.S.Otaqulov	
Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv	92
B.M.Dehqonov	
Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash	97
X.Sh.Djo'raboyeva	
An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni.....	101
	ILMIY AXBOROT
M.K.Usmonaliyeva	
Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi.....	105
O.N.Fozilova	
Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarida qahramon talqini.....	108
J.J.Mamatisakov	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli	113
N.B.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari.....	121
G.O.Abdujalilova	
Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi	124
X.Z.Umarova	
Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog»	127
D.Hakimova	
Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish	130
G'.M.Alamov	
Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati	135
A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish.....	139
S.R.Xoliqov	
Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviyati va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari	143
M.A.Алиева	
Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мерещковского	147
A.Y.Ergashev	
Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari	152
Z.X.Oxunova	
Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni	155
X.J.Isomiddinov	
Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari.....	158
R.D.Mustayev	
Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati	161
B.I.Muxtoraliev	
Ilk hikoyalaridagi ijodiy o'ziga xoslik	165
D.S.Abdugodirov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	171
M.M.Azizov	
Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking	174
A.U.Xamidjanov	
Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi.....	181
G.T.Dadamirzayeva	
Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri.....	191

**XALQ O‘YINLARI VA MILLIY BELLASHUVLARNING O‘QUVCHI-YOSHLARNI
TARBIYALOVCHI MUHIM OMIL SIFATIDAGI AHAMIYATI****ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНЫХ ИГР И НАЦИОНАЛЬНЫХ СОРЕВНОВАНИЙ КАК ВАЖНОГО
ФАКТОРА ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ И МОЛОДЕЖИ****THE IMPORTANCE OF FOLK GAMES AND NATIONAL COMPETITIONS AS AN
IMPORTANT FACTOR OF EDUCATION OF STUDENTS AND YOUTH****Alamov G‘ayratjon Maxsumovich¹**¹Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada an‘anaviy xalq o‘yinlari va milliy bellashuvlarning inson hayotida xalq madaniyati va san‘atining ajralmas qismi o‘laroq tahlili, shuningdek, o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati hamda vazifalari tadqiqi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье описан анализ традиционных народных игр и национальных состязаний как неотъемлемой части народной культуры и искусства в жизни человека, а также исследование их значения и задач как важного фактора воспитания учащихся.

Abstract

This article describes the analysis of traditional folk games and national competitions as an integral part of folk culture and art in human life, as well as the study of their importance and tasks as an important factor in educating students.

Kalit so‘zlar: xalq o‘yinlari, milliy qadriyatlar va an‘analar, hududiy o‘yinlar, mavsumiy o‘yinlar, sog‘lom avlod, sport musobaqalari, milliy bellashuvlar

Ключевые слова: народные игры, национальные ценности и традиции, региональные игры, сезонные игры, здоровое поколение, спортивные соревнования, национальные соревнования

Key words: folk games, national values and traditions, regional games, seasonal games, healthy generation, sports competitions, national competitions

KIRISH

Xalq o‘yinlari taraqqiyotning barcha bosqichlarida o‘z davri odamlarining hayoti, turmush tarzi, mehnat sharoiti, millati, dini va boshqa o‘ziga xos belgilarini o‘zida mujassam etib kelgan va ishtirokchilarda chaqqonlik, chidamlilik, ijodiy topag‘onlik, g‘ayratlilik, kuchlilik sifatlarini tarbiyalashga xizmat qilgan. Sog‘lom, aqlli, epchil va mard avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish har bir ajdodning ezgu orzusidir. Bu borada turli xalq o‘yinlarining o‘rni va ahamiyati beqiyos[6].

Xalq o‘yinlari yangi sog‘lom avlodni shakllantirishda muhim o‘rin tutgani uchun biz ularni ko‘z qorachig‘idek asrashimiz, e‘zozlashimiz va ulardan oqilona foydalanishimiz zarur. Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlar – milliy ong, tarixiy xotira, azaliy an‘analar, diniy e‘tiqodlar, xalq ijodi qatorida milliy o‘yinlar ham jadal tiklana boshladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan oqilona islohotlar jarayonida yosh avlodni ham jismonan, ham ma‘nan sog‘lom etib tarbiyalash borasida misli ko‘rilmagan ezgu sa‘y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu ezgu ishlarning samarasi o‘laroq, yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonun, «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» Davlat dasturi ishlab chiqildi. Yurtimizda milliy tizim – uzluksiz ta‘lim jarayoni yo‘lga qo‘yildi. Yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash maqsadida umumta‘lim muassasalarida sport obyektlari qurish va ta‘mirlash, ularni zamonaviy sport anjomlari bilan jihozlash, ixtisoslashgan maktab-internatlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari belgilandi.

Maktab o‘quvchilari o‘rtasida sport musobaqalari va jismoniy tarbiya fanidan olimpiada tashkil qilib, ularda g‘olib bo‘lganlarni oliy ta‘lim muassasalariga kvotadan tashqari imtiyozli asosda qabul qilish hamda ularga sport toifasi berish masalasi ko‘rib chiqildi. Shuningdek, bunday yoshlarni tayyorlagan jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ish haqiga qo‘shimcha ustama, yuqori toifa va unvonlar berish taklif etildi.

Soha uchun kadrlar tayyorlash qamrovini kengaytirish, intensiv malaka oshirish platformasini yo'lga qo'yish, murabbiylarga talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha maxsus sirtqi bo'limlar tashkil qilish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Oliy ta'lim muassasalarini, imkoniyati va xususiyatidan kelib chiqqan holda, ma'lum bir sport turlariga ixtisoslashtirish lozimligi ko'rsatib o'tildi. Bu talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish barobarida sport federatsiyalari bilan hamkorlik orqali professional sportga mahoratli yoshlarni saralash imkonini beradi. Bugun bu tadbirlar o'z samarasini berib, davlatimiz yoshlari nafaqat mamlakatimiz, balki jahon sport o'yinlarida ham g'oliblikni qo'lga kiritmoqdalar va yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarmoqdalar. Bunday natijalar yurtimizda sog'lom avlod tarbiyasida olib borilayotgan oqilona ijtimoiy siyosatdan darak beradi, albatta.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xalq milliy o'yinlarining deyarli barcha turlarida chaqqonlik, epchillik, jasurlik, pahlavonlik, mardlik kabi jismoniy sifatlari va insoniy fazilatlar mujassamlashgan. Xalq milliy o'yinlarining turlari, ularning mazmuni hamda ijtimoiy-tarbiyaviy xulosalari haqida atoqli olimlar U.Qoraboyev, M.Murodov, N.Jabborov, T.S.Usmonxo'jayev, A.K.Atoev, R.Q.Qudratov, F.N.Nasriddinov, S.Yo'ldoshev, R.Abdumalikov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar o'tkazganlar. Jumladan, R.Abdumalikov, R.Q.Qudratov, K.D.Yarashevlarning «Ko'pkari» ilmiy ommabop risolasi, shuningdek, O.R.Toymurodov, F.A.Karimov, A.Q.Atoev kabilarning milliy kurash to'g'risidagi o'quv va uslubiy qo'llanmalarida xalq milliy o'yinlarining mazmunlari qatorida ularning ijtimoiy tarbiyaviy xususiyatlari ham batafsil ifoda etilgan.

Tadqiqotchilarning o'quv va ilmiy ommabop qo'llanmalari, to'plamlari, qator maqolalari bugungi kunda xalq orasida ma'lum. O'quvchi-yoshlar hamda talabalar ulardan maqsadli foydalanib kelmoqdalar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xalqda har doim ommaviy sevib va turli sabablar tufayli o'ynaladigan an'anaviy o'yinlar bo'lgan. Bu kabi aksariyat o'yinlar bizni uzoq o'tmish sari boshlab, ko'hna tarix madaniyati va san'atining sarchashmalaridan bahramand qiladi, shu bilan birga, tarixda O'zbekiston hududida yashagan, bir qismi ko'chmanchi, bir qismi o'troq xalqlarning turmush tarzi bilan tanishtiradi. Qadim zamonlarda xalqlarda yoshi, turmush tarzi va e'tiqodidan qat'iy nazar ishtirokchilar o'rtasida otda yurish, otda chopish va poyga musobaqalari, tosh ko'tarish, kamondan o'q uzish kabi qizg'in, kuch talab qilinadigan o'yinlar tashkil qilingan. Shuningdek, xalq orasida ko'pkari, kurash, xo'roz urishtirish kabi milliy o'yinlar keng tarqalgan[7:8].

Minglab hammaga ma'lum o'yinlar bilan bir qatorda ayrim mintaqalarimizga xos o'rganilmagan o'yinlar ham bisyordir. Ba'zi bir qishloq o'yinlari boshqalariga umuman o'xshamasligi ham mumkin. Bundan tashqari, o'zbek xalqining an'analari orasida turli yoshdagilar, turli jinsdagilar, yil fasllari, shahar va qishloqlarga xos o'yinlar tizimi bo'lgan.

Xalq o'yinlari orasida boshqotirma, so'z, qo'shiq, raqs-o'yinlar, voqeaband harakatli o'yin turlari ham mashhur bo'lgan. Biroq ilmiy adabiyotlarda hanuzgacha qabul qilingan umumiy tasnifni topish qiyin. O'zbekiston hududida hamma biladigan qiziqarli o'yinlar bilan birga o'z hududlariga xos o'yinlar ham mavjuddir. Farg'onada "Chumchuq tushdi boshimga", "Botmon-botmon", "Qo'shiqni boshi", "Kapitan", "Do'ppi tishlar", "Par etdi", "Shayton-shayton" va boshqalar, Toshkentda "Chig'iriq" (joyida aylangan holda koptok o'ynash), "Chortak" (yerda chizib qo'yilgan chiziqlar orasida sakrash), "Arqon o'yin" (arqondan sakrab o'tish), "Tosh o'yin" (mayda toshchalar) kabi o'yinlar rasm bo'lgan.

Hududiy o'yinlar ham turli joy va muhitda o'ynalgan. Masalan, uyda – sandal o'yin, boshqotirma va so'z o'yinlari; hovlida – tom o'yinlari, arqon, chizikli o'yinlar, bekinmachoq; maydonlarda – chirikas, tortishmachoq; bog'da – yong'oq, danak o'yinlari; suvda – suv ostida ko'p turish, suzish bo'yicha musobaqalar, quvlashmachoq; havoda – arg'imchoq uchish; osmonda – varrak o'yinlari bajarilgan. Har bir joyning o'z o'yini bo'lgan, hatto sardoba, karvonsaroy, choyxona, mehmonxona kabi joylarning ham maxsus o'yinlari bo'lgan. Tuyada, otda kelayotgan yo'lovchilar dam olish bekatlarida oyog'ini yozish maqsadida arqondan sakrash o'yinlari bilan shug'ullanganlar[4:40-45].

Milliy xalq o'yinlari asrlardan asrlarga o'tib kelgan, xalqning dono tajribasini o'zida jamlagan, ruhiyat, tanani chiniqtirish choralari sifatida asriy sinovlardan o'tgan, qanchalab sarkardalar-u xalq qahramonlarining kamolga yetishuvida asos vazifasini o'tagan.

Yurtimizni jahonga tanitishda sportning ahamiyati kundan kun yuksalib bormoqda. Hozirda jismoniy tarbiya fanidan ta'lim standarti talablari asosida ishlab chiqilgan dasturlarda milliy xalq o'yinlariga ham sport mashg'ulotlari qatorida joy ajratilgan. Milliy o'yinlar, kurash, uloq, shu bilan bir

qatorda, xalqaro sport turlari – tennis, boks, futbolning dunyo xalqlari o'rtasida o'zbeklarning obro'sini oshirishga xizmat qilayotganligining guvohimiz. Qadriyatlarni e'zozlash, qadimiy urf-odatlarini shakllantirish, e'tiqodlarni mustahkamlash, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy merosimizni kelajak avlodga yetkazish va yoshlar ongiga milliy xalq o'yinlarining mazmun-mohiyatini chuqur singdirish bugungi dolzarb masaladir. Ta'lim-tarbiya jarayoniga xalq o'yinlarining turli usullarini faol tatbiq etish zarur. Nafaqat darslarga, balki sinfdan tashqari tadbirlarga ham ushbu o'yinlarni izchil joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Negaki xalq o'yinlari:

- o'quvchilarni jismonan, ruhan sog'lom etib tarbiyalaydi;
- o'quvchilar jamoalarida xalqimizga xos bag'rikenglik, jamoaviylik, jipslilik tamoyillarini qaror toptirishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchilarda harakatchanlik, yuqori kayfiyat, mashg'ulotlarni izchil o'zlashtirishga nisbatan ishtiyoq uyg'otadi;
- o'quvchilarning xalqimiz tarixi, madaniyati va ko'hna qadriyatlariga oid bilim, malakalarini yanada oshiradi, bu orqali ularning qalblarida iftixor tuyg'ularini uyg'otadi va h.k[1:65-70].

Milliy xalq o'yinlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy, aqliy-ruhiy, jismoniy-madaniy sifatlari shakllantiriladi va takomillashtirib boriladi; o'quvchilarda o'zaro bag'rikenglik, jamoa manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yish, aniq maqsadlar sari faollik va tashabbus ko'rsatishdek umuminsoniy fazilatlar qaror topadi; jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida qo'yilgan pedagogik maqsadlarga to'laqonli darajada erishiladi[2:855-860].

O'zbek xalq o'yinlaridan kasalliklarni davolash maqsadida va o'rgatish jarayonida keng ko'lamda foydalanish mumkin. Kasallikning oldini olish uchun qo'llaniladigan o'yinlardan o'yinlar bilan kasaldan chiqqan odamda qo'llaniladigan o'yinlarning farqini bilish juda zarur. Chunki ularning jismoniy yuklanishi bir-biridan albatta farq qilib turishi darkor. O'rgatish jarayonida esa ko'nikma va malakalarni shakllantirishga muvofiq o'yinlar tanlab beriladi.

Yuqoridagilarni nazarda tutib o'zbek xalq o'yinlarini quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

- harakat sifatlarini rivojlantiruvchi o'yinlar;
- darsni ayrim qismlarida qo'llaniladigan o'yinlar;
- turli yoshdagi bolalar faoliyatida qo'llaniladigan o'yinlar;
- bolalar jinsiga qarab qo'llaniladigan o'yinlar;
- ruhiy hissiyotlarni rivojlantiruvchi o'yinlar;
- yorug' va qorong'i sharoitlarda qo'llaniladigan o'yinlar;
- hayotiy zarur malakalarni egallashda yordam beruvchi va takomillashtiruvchi o'yinlar;
- sport faoliyatida qo'llaniladigan o'yinlar[5:264-269].

«O'yinni to'g'ri tanlash va maqsadga muvofiq yo'sinda o'tkazish juda muhim ahamiyatga ega. Ammo o'yin hamma vaqt ham tarbiyaviy vazifalarni hal qilavermaydi. Tarbiya sohasida yaxshi natijaga erishish uchun harakatli o'yinlar tarbiyaviy tashkil qilinishi va o'tkazilishi kerak. O'yin rahbari o'quvchilar jamoasini yaxshi bilishi, har bir o'yinning mazmuni va qoidalari bilan mufassal tanishishi, yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina u harakatli o'yinlardan ko'zlangan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erisha oladi»[3:31-34].

Darhaqiqat, xalq o'yinlari o'quvchilarni jismonan chiniqtiribgina qolmay, avvalo, ularga yuksak axloqiy tarbiya berish xususiyati bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, jamoaviy o'yinlarda ishtirokchilarning «bir kishi hamma uchun» tamoyili asosida g'alabaga intilishi, bir-birining kamchiligini to'ldirishi, qiyin vaziyatda o'zaro bir-biriga yordam ko'rsatishi o'quvchilarda bag'rikenglik, ahillik va jipslilik mezonlarini qaror toptirishi diqqatga sazovordir. «Oq terakmi, ko'k terak», «G'ozlar va oqqushlar», «Kuchlilar va chaqqonlar», «Arqon tortish», «Quvlashmachoq» kabi o'yinlarni ana shunday o'yinlar sirasiga kiritish mumkin. «Durra», «Otib qochar», «Uchtalik to'ptosh», «Xakkalakam sharti», «Otambaqala-Qoqbosh», «Ikki tosh», «Yong'oq urish», «Beshtosh» o'yinlari esa o'quvchilar o'rtasida o'zaro murosa, kelishuvchanlik, ezgu maqsad atrofida birlashish xislatlarini tarbiyalaydi.

XULOSA

Milliy xalq o'yinlari avvalo o'quvchilarda milliy an'analarni bilishga, ularga nisbatan hurmat bilan qarashga undaydi. Xalq o'yinlari o'quvchilarda fiziologik rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi, ularning faol harakatlanishini ta'minlab, qon aylanishini yaxshilaydi, nafas harakatlarini faollashtiradi, bir me'yorda nafas olishga yordam beradi.

Umuman olganda, an'anaviy xalq o'yinlari va milliy bellashuvlar inson hayotida nafaqat xalq madaniyati va san'atining azaliy ajralmas bo'lagi, shuningdek, bolalar va kattalarni tarbiyalovchi

muhim omil sifatida ham ahamiyat kasb etib kelgan. Bu kabi o'yin-musobaqalar chog'ida abjirlikni namoyish etib samimiy zavqlanishdan ham ko'ra, o'zaro tanishish, qo'shni xalqlar do'stlik munosabatlarini rivojlantirish, yosh avlodni g'alaba sari olg'a borishga odatlantirish, raqibga hurmatda bo'lishga o'rgatish, tang vaziyatda ham to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish ulardan ko'zlangan muhim jihatlar bo'lgan.

Xalq o'yinlari to'g'risidagi nazariy fikrlar va tajribalarni tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

- xalq o'yinlari aholi orasida qadim zamonlardan tarkib topib, tarqalgan bo'lib, davrlar o'tishi bilan ajdodlardan avlodlarga takomillashib, sayqallashib o'tib borgan;

- mintaqadagi etnosotsial, etnotarixiy jarayonlar rivojida aholining birligi, hamjihatligi, o'zaro tinch va osoyishta turmushni ta'minlashda xalq o'yinlari muhim stimuly bo'lganligi isbot talab qilinmaydi;

- hudud bo'ylab tarqalgan va an'anaviylashgan xalq o'yinlarining etnografik tahlili shuni ko'rsatadiki, birinchidan, xalq o'yinlari umumiy va lokal xususiyatlarga ega, ikkinchidan ularni tashkil etish va o'tkazishning qat'iy qoida va me'yorlari ishlab chiqilgan, uchinchidan o'yinlar asosan chaqqonlik, hushyorlik, ustomonlik, halollik, raqibni hurmat qilish, mehmondo'stlik, tolerantlik, millatidan qat'iy nazar insoniy munosabatda bo'lish kabi tamoyillar doirasida o'tkazilgan;

- mustaqillik yillarida vujudga kelgan, shakllangan hamda takomillashib borayotgan xalq o'yinlarining tarixi, ularning komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev A.A. Milliy xalq o'yinlari va sog'lom avlod tarbiyasi. Zamonaviy ta'lim. 2017, №9.
2. Abdullayev A.A. Xalq o'yinlaridan foydalanib o'quvchilarni jismonan va ruhan barkamol qilib tarbiyalash yo'llari. Academic research in educational sciences. Volume 2 | ISSUE 3 | 2021.
3. Aslonova M. Ta'lim jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish (boshlang'ich sinflarning jismoniy tarbiya darslari misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi. – Navoiy, 2008.
4. Dehqonv R. Sog'lom avlodlarni shakllantirishda xalq o'yinlari va an'analarning tutgan o'rni. "Oriental art and culture". Scientific-Methodical Journal — Issue 5 / 2020.
5. Utepbergenov A.K. Hozirgi davrda navqiron yoshlar tarbiyasida milliy xalq o'yinlarining ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati. Academic research in educational sciences. Volume 2 | ISSUE 7 | 2021.
6. Yo'ldoshev S.V. Barkamol avlod tarbiyasida an'anaviy xalq o'yinlarining ahamiyati. <file:///C:/Users/user/Downloads/6f1cd78d-80e7-48de-9369-23a4408df542.pdf>
7. Yo'ldosheva R. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent, 1992.